

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраhon Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tadjibayeva Venera,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasida doktoranti
e-mail: venera.tadjibaevaa@gmail.com

BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064439>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boqimandalik tushunchasining sotsiologik mazmun-mohiyati kompleks tarzda ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida boqimandalik fenomenining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar chuqur o‘rganiladi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. Shuningdek, ushbu holatning jamiyat rivojiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy sotsiologik nazariyalar asosida boqimandalikning paydo bo‘lish mexanizmlari izchil tahlil qilinadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, boqimandalik kayfiyati shaxslarning ijtimoiy faolligi, mehnat motivatsiyasi darajasi hamda ijtimoiy institutlar faoliyati samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu omillar o‘zaro ta’sir orqali mazkur fenomenni shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: boqimandalik, sotsiologiya, ijtimoiy faollik, mehnat motivatsiyasi, ijtimoiy institutlar, iqtisodiy omillar.

Таджибаева Венера,
докторант кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
e-mail: venera.tadjibaevaa@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ИЖДИВЕНЧЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится комплексный научный анализ социологической сущности понятия иждивенчества. В рамках исследования подробно рассматриваются ключевые экономические, социальные и культурные факторы, влияющие на формирование данного феномена, а также выявляется их взаимосвязь. Особое внимание уделяется оценке как положительных, так и отрицательных последствий иждивенчества для развития общества. В ходе исследования на основе современных социологических теорий последовательно анализируются механизмы возникновения иждивенческих установок. Полученные результаты показывают, что склонность к иждивенчеству тесно связана с уровнем социальной активности личности, мотивацией к труду, а также эффективностью функционирования социальных институтов, которые в совокупности формируют данный феномен.

Ключевые слова: иждивенчество, социология, социальная активность, трудовая мотивация, социальные институты, экономические факторы.

Tadjibayeva Venera,
basic doctoral student of the Department of Sociology
National University of Uzbekistan
e-mail: venera.tadjibaevaa@gmail.com

THE SOCIOLOGICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF DEPENDENCY

ABSTRACT

This article provides a comprehensive scientific analysis of the sociological essence of the concept of dependency. The study examines in depth the key economic, social, and cultural factors that influence the formation of this phenomenon and identifies their interrelations. Particular attention is given to assessing both the positive and negative impacts of dependency on societal development. Furthermore, the research analyzes the mechanisms underlying the emergence of dependency attitudes based on contemporary sociological theories. The findings indicate that dependency tendencies are closely linked to individuals' level of social activity, work motivation, and the effectiveness of social institutions, all of which interact to shape this phenomenon.

Keywords: dependency, sociology, social activity, labor motivation, social institutions, economic factors.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti insonning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va mehnatga bo'lgan munosabati bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat rivojining muhim omillaridan biri fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishidir. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy muhitlarda shaxslarning tashqi yordamga ortiqcha tayanishi yoki o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirishdan ko'ra boshqa subyektlarga suyanishi kabi holatlar kuzatiladi. Sotsiologiyada bunday hodisa boqimandalik deb ataladi. Boqimandalik shaxs yoki ijtimoiy guruhning o'z imkoniyatlaridan foydalanish o'rniga davlat, jamiyat yoki boshqa shaxslar yordamiga haddan tashqari tayanishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisadir [3].

Sotsiologik nuqtai nazardan boqimandalik ijtimoiy ong, ijtimoiy institutlar faoliyati va jamiyatdagi iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu hodisa ko'pincha iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy passivlik, mehnatga rag'batning pasayishi va ijtimoiy himoya tizimining noto'g'ri ishlashi bilan izohlanadi. Shu sababli boqimandalikni o'rganish nafaqat sotsiologiya, balki iqtisodiyot, ijtimoiy psixologiya va siyosatshunoslik fanlari uchun ham muhim hisoblanadi [7].

Rossiyalik tadqiqotchilar I.S.Karpikova va E.V.Zimin "boqimandalik"ni quyidagicha ta'riflaydi: bu "individning hayotga bo'lgan iste'molchi munosabatiga yo'naltiruvchi va hayotni ta'minlash bo'yicha qarorlar qabul qilish mas'uliyatini jamiyatga o'tkazishga yo'naltiruvchi hayotiy munosabatlar tizimi". Boqimandalik, qoida tariqasida, o'zaro yordam, homiylik va oddiygina g'amxo'rlik va yordam shiori ostida yashiringan. Ijtimoiy psixologiyada boqimandalik tushunchasi bu fazilat bolalikda, masalan, uy vazifasini yoki testni nusxalashda yoki boshqa odamlarning narsalariga tajovuz qilishda o'zini namoyon qiladi. Bu sifat o'g'irlik, hasad va boshqa illatlarni qo'zg'atadi [9].

Mashhur fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvor shakllarini ijtimoiy institutlar va kollektiv ong bilan bog'laydi. Uning fikricha, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi va mehnat taqsimoti insonlarning ijtimoiy faolligi darajasini belgilaydi [4]. Agar jamiyatda mehnat qadriyatlari yetarlicha shakllanmagan bo'lsa, shaxslar ijtimoiy passivlikka moyil bo'lishi mumkin. Bu esa boqimandalik kayfiyatining paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Nemis sotsiologi Maks Veber va boshqalar esa ijtimoiy xulq-atvorni iqtisodiy madaniyat bilan bog'lab tushuntiradi. Uning fikriga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti mehnat etikasi va shaxsiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq [8]. Agar jamiyatda shaxsiy mas'uliyat va mehnatsevarlik qadriyatlari sust rivojlangan bo'lsa, ijtimoiy passivlik va boqimandalik kayfiyati kuchayishi mumkin.

Zamonaviy sotsiolog Entoni Giddens ham ijtimoiy jarayonlarda individning faol ishtirok etishi muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, jamiyat barqaror rivojlanishi uchun fuqarolar ijtimoiy va

iqtisodiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan darajada faol bo'lishi zarur [5]. Shu nuqtai nazardan, boqimandalik jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy hodisalardan biri sifatida baholanadi.

Boqimandalik – bu shaxs yoki guruhning o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirish o'rniga boshqalarga yoki davlatga ortiqcha darajada tayanish holatidir. Sotsiologik nuqtai nazardan, ushbu hodisa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Max Weber ta'kidlaganidek, ijtimoiy xatti-harakatlar ko'pincha tashqi omillar va iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi, bu esa boqimandalik holatlarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi [10].

Shuningdek, boqimandalik fenomenini tushuntirishda Pierre Bourdieuning ijtimoiy kapital va habitus nazariyalari muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy muhitda egallagan o'rni va mavjud resurslari uning xulq-atvorini belgilaydi, natijada ayrim guruhlarda passivlik va qaramlik kayfiyati shakllanishi mumkin [11].

Bundan tashqari, Amartya Sen rivojlanishni inson imkoniyatlari bilan bog'lab izohlaydi. Agar jamiyatda insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, ular mustaqil faoliyat yuritish o'rniga tashqi yordamga tayanishga majbur bo'ladi [12]. Bu holat boqimandalikning kengayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, boqimandalik nafaqat individual xususiyat, balki murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u iqtisodiy, madaniy va institutsional omillar ta'sirida shakllanadi. Uni kamaytirish uchun bandlikni oshirish, ta'lim tizimini rivojlantirish va aholining ijtimoiy faolligini kuchaytirish zarur.

Sotsiologiya fanlari doktori professor M.B.Bekmurodov: “Ekzistensiya – yashashni, ayni vaqtda yashayotganlikni anglash, o'zgarayotgan va o'tayotgan zamoni o'z ruhiyati va vujudida doimiy his etib yashashni anglatadi. Ekzistensiya shaxsni o'z-o'ziga beradigan bahosi, o'zini o'zi baholash darajasi hamdir. Demak, shaxsning o'zini o'zi baholash darajasi qancha past bo'lsa, uning ijtimoiy foydali bo'lmagan holatlarga, jamoatlarga integratsiya bo'lishi shuncha yuqori bo'ladi” – deb tavsiflaydilar. Nochorlik insonda umidsizlik, qo'rquv va azob-uqubatlarga sabab bo'ladi. Inson hayotida barqarorlikni tutib turish esa g'amxo'rlik, mehr va e'tiborga bo'lgan ehtiyojda namoyon bo'ladi. M.B.Bekmurodov taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan yana bir ijtimoiy illat – prokrastinatsiya hodisasi haqida to'xtalib, “prokrastinatsiya fenomeni insonni bunyodkorlik xususiyatini susaytiruvchi, uning yalqovlik va befarqlik jihatlarini kuchaytiruvchi omil sifatida inson taraqqiyotini sustlashtirish bilan jiddiy xavf tug'diradi” – deydi. Demak, ekzistensializmga muvofiq umidsizlik, qo'rquv hissi kishining ijtimoiy nochorlikka duchor qilsa, prokrastinatsiya holati bir tomonidan, insonning o'z ijtimoiy holatini yaxshilash yo'lida harakatlarini falajlovchi ichki kechinmalar bois, shaxsning o'zini o'zi boshqara olish kuchini zaiflashtiradi, undagi qat'iy ishonch va g'ayrat hissini pasaytiradi, o'zi tushib qolgan murakkab ijtimoiy vaziyatdan chiqib olish choralarini qidirishda paysalga solishni odat tusiga aylantiradi. Natijada, ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini murakkablashtiruvchi illat – boqimandalikni avj oldiradi [6].

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.B.Matibayev fikriga muvofiq: “Boqimandalik o'z qobiliyati va jamiyatdagi o'rnini topa olmaslik o'zini o'zi baholay olmaslik oqibatida yuzaga keladi”. Buni sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Umarov o'z hayoti mazmunini boyitishga intilmagan insonning yashashi maqsadsizlikka olib keladi, deb tavsiflaydilar. Zero, inson o'z hayotini ma'nodor qilishga intilar ekan, butun hayotini o'zgartirishga, uni yanada boyitishga xizmat qiladi va shaxsiy o'zligi doirasidan chiqib, jamiyat g'oyalari tashuvchisiga aylanadi [8].

O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy faollikni oshirish va boqimandalik kayfiyatini kamaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarning mehnat faolligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Jumladan, 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish orqali jamiyatda mehnatga asoslangan farovonlikni shakllantirishga

qaratilgan. Ushbu strategiyada aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bilan birga, fuqarolarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga sharoit yaratish muhim yo'nalish sifatida belgilangan [2].

Bundan tashqari, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmon bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish siyosati" ham fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularni mehnatga jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy boqimandalikning oldini olishga qaratilgan [1].

Shunday qilib, boqimandalik tushunchasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi. Uni sotsiologik jihatdan o'rganish jamiyatdagi ijtimoiy faollikni oshirish, mehnat madaniyatini rivojlantirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi boqimandalik tushunchasining sotsiologik mazmun-mohiyatini tahlil qilish, uning shakllanish omillarini aniqlash hamda jamiyat rivojiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganishdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda boqimandalik tushunchasining sotsiologik mazmun-mohiyatini aniqlash hamda uning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi o'rnini tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tahlil usullari uyg'un holda qo'llanildi.

Avvalo, nazariy tahlil usuli qo'llanilib, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa va iqtisodiyot sohalaridagi ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Bu jarayonda boqimandalik fenomenini bilan bog'liq ilmiy qarashlar, jumladan, Emil Dyurkgeym, Maks Veber, Entoni Giddens, Pyer Bourdieu kabi sotsiolog olimlarning ijtimoiy xulq-atvor va ijtimoiy tuzilma haqidagi nazariyalari tahlil qilindi. Nazariy manbalarni tahlil qilish orqali boqimandalik tushunchasining ilmiy ta'rifi, uning asosiy belgilari va jamiyatdagi namoyon bo'lish shakllari aniqlab olindi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham qo'llanildi. Ushbu usul orqali turli jamiyatlarda boqimandalik fenomenining namoyon bo'lish shakllari, uning iqtisodiy va madaniy omillari solishtirildi. Qiyosiy tahlil natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan jamiyatlarda ijtimoiy passivlik darajasi hamda uning sabablari o'rtasidagi farqlar aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, tadqiqotda strukturaviy-funksional yondashuvdan foydalanildi. Ushbu metod sotsiologiyada jamiyatni o'zaro bog'langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida o'rganishga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, oila, ta'lim, iqtisodiyot va davlat institutlarining boqimandalik kayfiyati shakllanishidagi roli tahlil qilindi. Strukturaviy-funksional tahlil yordamida boqimandalikning jamiyat ijtimoiy tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlab berildi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijalari boqimandalik tushunchasining sotsiologik mazmun-mohiyati jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan nazariy tahlillar asosida boqimandalik fenomenini shaxs yoki ijtimoiy guruhning o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirish imkoniyatlari mavjud bo'lsa ham, davlat, jamiyat yoki boshqa subyektlarning yordamiga ortiqcha darajada tayanishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida boqimandalik fenomenining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillar aniqlab berildi. Avvalo, iqtisodiy sharoitlar muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Jamiyatda bandlik darajasining pastligi, daromad manbalarining cheklanganligi va iqtisodiy imkoniyatlarning yetarli emasligi shaxslarning tashqi yordamga ko'proq tayanishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda ayrim shaxslar mustaqil iqtisodiy faoliyat o'rniga ijtimoiy yordam tizimiga suyanishni afzal ko'rishi ehtimoli ortadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy institutlarning faoliyati ham boqimandalik kayfiyatining shakllanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Oila, ta'lim tizimi, mehnat bozori va davlat siyosati shaxslarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy institutlar hisoblanadi. Agar ushbu institutlar fuqarolarda tashabbuskorlik, mehnatsevarlik va mustaqillik qadriyatlarini

yetarli darajada shakllantira olmasa, jamiyatda ijtimoiy passivlik va boqimandalik kayfiyati kuchayishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ta'lim tizimi ham boqimandalik fenomenining oldini olishda muhim omillardan biridir. Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissi shakllantirilsa, shaxslarning ijtimoiy faolligi ortadi. Aksincha, agar ta'lim tizimida faqat nazariy bilim berishga urg'u berilib, amaliy ko'nikmalar va mustaqil faoliyatni rivojlantirish yetarli darajada ta'minlanmasa, bu shaxslarning ijtimoiy passivligiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, madaniy qadriyatlar tizimi ham boqimandalik kayfiyatining shakllanishida muhim rol o'ynashi aniqlandi. Jamiyatda mehnat qadriyatlari, shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik yuqori darajada qadrlansa, fuqarolarning ijtimoiy faolligi ortadi. Aksincha, agar jamiyatda tashqi yordamga ortiqcha tayanish odatiy hol sifatida qabul qilinsa, boqimandalik kayfiyati kuchayishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari boqimandalik fenomeni ko'p omilli ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Uning shakllanishi iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy institutlar faoliyati, ta'lim tizimi hamda jamiyatdagi madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalarini sotsiologik nazariyalar va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar nuqtai nazaridan tahlil qilish boqimandalik fenomenining jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Olingan natijalar iqtisodiy, madaniy va institutsional omillar boqimandalik kayfiyatining shakllanishida asosiy rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Sotsiologik yondashuvlarga ko'ra, jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvor shakllari kollektiv ong, ijtimoiy normalar va institutlar faoliyati bilan belgilanadi. Agar jamiyatda mehnat qadriyatlari, mas'uliyat hissi va faol hayotiy pozitsiya yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ijtimoiy passivlik kuchayadi. Natijada, insonlarda tashqi yordamga ortiqcha tayanish tendensiyasi shakllanib, boqimandalik kayfiyati paydo bo'ladi.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish jarayonida mehnat etikasi va shaxsiy tashabbus muhim omil hisoblanadi. Mehnatsevarlik, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish va mas'uliyat hissining past darajada bo'lishi jamiyatda boqimandalikning kuchayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalarida ham mehnat motivatsiyasining sustligi asosiy omillardan biri sifatida aniqlangan bo'lib, bu holat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy qarashlar nuqtai nazaridan esa jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtiroki bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy faollikning pasayishi iqtisodiy tengsizlikning ortishiga, bandlik darajasining pasayishiga va natijada aholining yordamga qaramlik darajasining oshishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari ham iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi hamda ish o'rinlarining yetishmasligi insonlarni tashqi yordamga ko'proq tayanishga majbur qilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, boqimandalik fenomenini kamaytirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siyosatning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, jamiyatda mehnat qadriyatlarini rivojlantirish, fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirish, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim tizimida mustaqillik va tashabbuskorlikni shakllantirish orqali boqimandalik kayfiyatini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda boqimandalik tushunchasining sotsiologik mazmun-mohiyati har tomonlama tahlil qilindi hamda uning jamiyat rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillari aniqlab berildi. O'tkazilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, boqimandalik fenomeni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ushbu hodisa shaxslarning ijtimoiy faolligi, mehnatga bo'lgan munosabati hamda jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, boqimandalik kayfiyatining shakllanishida eng muhim omillar sifatida iqtisodiy beqarorlik, bandlik darajasining pastligi, ijtimoiy yordam tizimiga ortiqcha tayanish, mehnat motivatsiyasining sustligi hamda ta'lim tizimida tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlanadi. Shuningdek, madaniy qadriyatlar tizimi ham ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda mehnatsevarlik, mas'uliyat va

tashabbuskorlik qadriyatlarini qanchalik rivojlangan bo'lsa, boqimandalik kayfiyatining darajasi shunchalik past bo'ladi.

Sotsiologik nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, boqimandalik fenomeni ijtimoiy institutlar faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Oila, ta'lim tizimi, iqtisodiy muhit va davlat siyosati shaxslarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Agar ushbu institutlar fuqarolarning mustaqil faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlasa, jamiyatda ijtimoiy faollik oshadi va boqimandalik kayfiyati kamayadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, boqimandalik fenomeni jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki u shaxslarning tashabbuskorligini pasaytiradi, mehnat motivatsiyasini susaytiradi va jamiyatda ijtimoiy passivlikning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli ushbu muammoni hal etish uchun kompleks ijtimoiy siyosat zarur.

Umuman olganda, boqimandalik fenomenini sotsiologik jihatdan o'rganish jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5975-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.03.2020-y., 06/20/5975/0369-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

3. Abdurahmonov Q.X. Sotsiologiya. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 312 b.

4. Durkheim E. The division of labour in society // Social theory re-wired. – Routledge, 2023. – Pp. 15-34.

5. Giddens A. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2006.

6. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

7. Qodirov A.A. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b.

8. Vaxabov A., Zaxidova Sh.Sh., Baxtiyorov B.B. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

9. Карпикова И.С. Особенности теоретической интерпретации феномена социального иждивенчества в условиях российского социума [Электронный ресурс] / И.С.Карпикова //Baikal Research Journal. Т. 8, № 4. 2017 URL: <http://brj-bguer.ru/reader/article.aspx?id»21897>.

10. Max Weber. The Theory of Social and Economic Organization. – 1947.

11. Pierre Bourdieu. Forms of Capital. – 1986.

12. Amartya Sen. Development as Freedom. – 1999.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000